



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI



Eko-madaniyat va
ekologik savodxonlikni
rivojlantirish

Mavzu: Mahalliy ekologik tashabbuslar va maktablarda qo'llaniladigan amaliyotlar

Maktablarda ekologik ongni shakllantirish va barqaror rivojlanishni
ta'minlash yo'llari



Bugungi dars rejasi

01

Mahalliy tashabbuslarning ta'limdagi o'рни

Ekologik ta'limda mahalliy kontekstning ahamiyati va roli

02

Ekologik tashabbuslarning turlari

Maqsadlari va amalga oshirish usullari

03

Maktabda amaliy loyihalar

Real misollar va tajribalar tahlili

04

Xulosa va tavsiyalar

Kelajak uchun istiqbollar va reja



Mahalliy ekologik tashabbuslar - bu nima?

Mahalliy ekologik tashabbuslar – bu muayyan hududda, ayniqsa ta’lim muassasalari doirasida amalga oshiriladigan, **atrof-muhitni muhofaza qilish**, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan tashkiliy-amaliy faoliyatlardir.

Ushbu tashabbuslar maktablarda o’quvchilarning ekologik kompetensiyalarini shakllantirishda va **ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirishda** muhim ahamiyatga ega.



Ekologik muammolarga bevosita aralashish

Hayotiy tajriba

o'quvchilar real ekologik muammolar bilan ishlash orqali amaliy ko'nikmalar egallaydilar

Ekologik ong

Amaliy faoliyat orqali chuqur ekologik tushuncha va mas'uliyat hissi shakllanadi

Fuqarolik pozitsiyasi

Jamiyat oldidagi mas'uliyat va ekologik muammolarni hal qilishdagi faol ishtiroki



Xalqaro standartlar va nazariy asoslar

UNESCO va UNEP konsepsiyalarida maktablar
“**Barqaror rivojlanish agentlari**” sifatida ko‘riladi

A.V. Mudrikning ijtimoiy faoliyat pedagogikasi nazariyasida bolalar **shaxsiy tajriba orqali** ijtimoiy muammolarni hal qilishda ko‘nikma hosil qiladi.

Ekologik ta'limda mahalliy kontekstni inobatga olish asosiy tamoyil hisoblanadi





“Mening yashil maktabim” loyihasi

Maktab hududini **obodonlashtirish**, yashil hududlarni kengaytirish, chiqindilarni samarali boshqarish, ekologik monitoring yuritish va resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror ekologik muhit yaratish faoliyati.

Loyiha maqsadlari



Ekologik Madaniyat

o'quvchilar ekologik madaniyatini oshirish va barqaror turmush tarzini shakllantirish



Ilmiy Monitoring

Tuproq, havo, suv kabi tabiiy omillar monitoringi orqali ilmiy asoslangan tajriba yuritish



Yashil Hududlar


Daraxtzor, gulzor, tomorqa zonasi tashkil etish va maktab muhitini yashillantirish



Ekologik Xaritalash

Maktab infratuzilmasini ekologik jihatdan baholash va "ekologik xarita" yaratish

GPS asosida ekologik xaritalash



Xaritalash jarayoni:

- o'quvchilar GPS ilovalari orqali hududni o'lchaydi
- Har bir ekologik obyektga koordinata belgilanadi
- Daraxt, chiqindi qutisi, suv manbalarini xaritaga tushirish
- Yashil hududni kengaytirish rejasini tuzish

i Ekologik xaritalash muhit monitoringi uchun zarur bo'lib, landshaft strukturasini baholashga imkon beradi



WHO tavsiyasi bo'yicha standartlar

10 m²

Yashil maydon

Urban ekologiya tamoyillariga ko'ra, 1 o'quvchiga kamida 10 m² yashil maydon to'g'ri kelishi tavsiya etiladi

2.5x

Yuqori natija

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, barqaror ta'lim muassasalari ekologik kompetensiyalarni shakllantirishda 2,5 baravar yuqori natija ko'rsatadi

Eko-bog': Bir o'quvchi - bir ko'chat loyihasi



Ko'chat ekish

Har bir sinf yoki o'quvchi o'z tanlagan daraxt yoki o'simlik ko'chatini ekadi va parvarish qiladi



Kundalik parvarish

Suv quyish, o'simlikning o'sishini o'lchash, fenologik o'zgarishlarni jurnalga qayd qilish



Ilmiy kuzatuvlar

Ekofiziologiya, fenologiya, fotosintez va transpiratsiya jarayonlari bilan tanishish

Loyiha maqsadlari va natijalar

Asosiy maqsadlar:

- Ekologik va agrar tafakkurni shakllantirish
- O'simliklarning o'sishi va agrotexnikasi haqida amaliy bilim berish
- Tabiiy omillar o'zaro ta'sirini kuzatish
- Mahalliy sharoitga mos bog' yaratish

Mavsumiy kuzatuvlar orqali ekologik sharoitlar va o'simlik o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish



Organik kompostlash tizimi

Organik chiqindilar

Maktab oshxonasidan sabzavot po'choqlari, choy qoldig'i yig'ish

Tayyor kompost

Mikroorganizmlar ishtirokida humusga aylanish va tuproq unumdorligini oshirish



Quruq materiallar

Quruq barg, qog'oz bilan aralashtirib, fermentatsiyaga tayyorlash

Nazorat va monitoring

Namlik va harorat nazorati, aerob parchalanish jarayonini kuzatish

Kompostlash - ilmiy jarayon

Kompostlash – **aerob parchalanish jarayoni** bo'lib, mikroorganizmlar ishtirokida organik moddaning humusga aylanishini ta'minlaydi.

Bu jarayon orqali o'quvchilar biogeokimyoviy aylanishlar, mikroorganizmlar roli va tuproq unumdorligini oshirish haqida amaliy bilimga ega bo'ladilar.

Kuzatish ko'rsatkichlari:

- Harorat (har kuni termometr bilan)
- Namlik (qo'lda sinov yoki torf namlagich)
- Pishib yetilishi (hid, rang, struktura)



XXI Asr: Ekologik ta'limning yangi yo'nalishlari

“Ekologik ongni shakllantirishda emotsional va ijtimoiy jihatdan jalb etuvchi faoliyatlar o'quv jarayonini ancha samarali qiladi” - UNESCO (2022)

Eko-marafonlar

O'quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirish va barqaror rivojlanish g'oyalarini amaliyotga joriy qilish

Ekologik tadbirlar

Jamiyatga ijobiy ekologik xatti-harakat namunalarini ko'rsatish vositasi sifatida



Xulosa: Kelajakka yo'naltirilgan ta'lim

Hayotga yaqinlashtirish

Mahalliy ekologik tashabbuslar ekologik ta'limni hayotiy amaliyotga bog'laydi

Shaxsiy tajriba

o'quvchilarning bevosita tajribasi orqali ekologik kompetensiyalarni shakllantirish

Hamkorlik

Maktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish, barqaror rivojlanishga xizmat qilish

Ekologik ta'lim - bu kelajak avlodlar uchun barqaror dunyo qurishning poydevoridir!



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI



Eko-madaniyat va
ekologik savodxonlikni
rivojlantirish

E'TIBORINGIZ UCHUN TASHAKKUR!



<https://linktr.ee/trmuz>



<https://trm.uz>



<https://www.facebook.com/trmuz>



https://www.youtube.com/@trm_uz



https://www.instagram.com/trm_uz/

